

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2024, № 4 (6)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2024

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович тарих
фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна тарих
фанлари доктори, доцент *Ўзбекистон*
Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Нарбеков Абдикамил Вафасевич
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Жамоат ҳафсизлиги университети
Кандахаров Анваржон Хасанович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Али Назарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Галиба,
Исторический факультет Национального
Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/> : E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib
Faculty of history of the National university of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/> : E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Абдуллаева Нигора Санжаровна “МУЗЕЙ ВОСТОКА” МУЗЕЙИДА ЎРТА ОСИЁ КОЛЛЕКЦИЯЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ	5
2. Абдуллаева Нигора Санжаровна РОССИЯНИНГ “МУСИҚА МУЗЕЙИ”ДА САҚЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОН МАДАНИЙ МЕРОСИ НАЪМУНАЛАРИ	17
3. Аннаев Жалолiddин Тухташевич МАРҒИЁНА БУДДАВИЙЛИК ЁДГОРЛИКЛАРИ ВА САНЪАТ НАМУНАЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	30
4. Азизов Ильдар Рафаэлевич УЧАСТИЕ И КЛЮЧЕВЫЕ АСПЕКТЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЗБЕКИСТАНА В МЕЖПАРЛАМЕНТСКОЙ АССАМБЛЕЕ СНГ	46
5. Балтабаева Манзура Мирзажановна ГЕНДЕРНАЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА: ВОПРОСЫ ЧАСТИЯ ЖЕНЩИН В ГОСУДАРСТВЕННОМ И ОБЩЕСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ	53
6. Бахронов Шерзод Таштурсунович ИЗ ИСТОРИИ ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ ТУРКЕСТАНСКОГО КРАЯ С РОССИЕЙ В КОНЦЕ XIX-НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ	65
7. Ишанхуджаева Замира Раимовна ИЗУЧЕНИЕ И СОХРАНЕНИЕ ПАМЯТИ О ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ С ПОМОЩЬЮ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЕКТА И ЦИФРОВОЙ ИСТОРИИ	74
8. Kamolova Muhlis Farhod qizi TURKISTON GENERAL-GUBERNATORI A.V. SAMSONOVNING O‘LKADAGI TA’LIM JARAYONI VA TARIXIY-MADANIY OBYEKTLAGA NISBATAN OLIV BORGAN SIYOSATI (1909-1914 YILLAR)	81
9. Махмудова Нигора Баротовна СОСТОЯНИЕ СЕЛЬСКОГО УПРАВЛЕНИЯ НА НАЧАЛО XX ВЕКА В ТУРКЕСТАНСКОМ ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРСТВЕ (НА ОСНОВЕ МАТЕРИАЛОВ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА)	91
10. Мусаев Нуриддин Умирзакович МИРЗАЧЎЛНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА УНИ ЎЗЛАШТИРИЛИШИ ТАРИХИДАН	103
11. Очилдиев Файзулла Бобокулович XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИДА БУХОРО АМИРЛИГИДА БОШЛАНҒИЧ ВА ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ	115
12. Raxmanova Mahbuba Shavkat qizi КАТТА О‘РТА ОСИЁ ИҚТИСОДИЙ РАЙОННИНГ ГЕОГРАФИК ВА ИҚТИСОДИЙ ТАВСИФИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	124

Kamolova M.F.
tayanch doktorant (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti
kamolova.muxlisa7@mail.ru

**TURKISTON GENERAL-GUBERNATORI A.V.SAMSONOVNING
O'LKADAGI TA'LIM JARAYONI VA TARIXIY-MADANIY
OBYEKTLAGA NISBATAN OLIB BORGAN SIYOSATI (1909-1914
YILLAR)**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 1909-1914 yillarda Turkiston general-gubernatori bo'lgan Aleksandr Vasilyevich Samsonovning o'lkada madaniy sohada olib borgan siyosati, jumladan, o'lka ta'limiga oid musulmon maktablari ustidan nazorat o'rnatish, o'quv ishlarini yo'lga qo'yish, texnikumlar ochish, xalq ta'limi sohasidagi til masalasi; o'lkadagi tarixiy-madaniy obyektlarga bo'lgan munosabati, Ahmad Yassaviy maqbarasiga nisbatan amalga oshirgan nomoddiy munosabati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. oliy texnikum, musulmon maktablari, syezd, ta'lim okrugi ishonchi vakili, Stolipin, Ahmad Yassaviy maqbarasi, Arxeologiya hay'ati.

KIRISH

1909–1914-yillarda Turkistonda Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatini oliy hokimiyat nomidan olib borish uchun o'lkaning general-gubernatori lavozimga Aleksandr Vasilevich Samsonov tayinlanadi. Imperiya hukumati tomonidan amalga oshirilgan bu tayinlov, V.Mustafin yozganidek, “A.V.Samsonov o'zining faoliyati davomida Turkistonda hech qachon xizmat qilmagan va bu o'ziga xos mintaqaga hech qanday aloqasi yo'q edi. Aleksandr Vasilyevich oldida mintaq, uning o'ziga xos turmush sharoiti va chet ellik aholisining e'tiqodlari, rus xalqini va mintaqada rus madaniyatini tashkil etishning murakkab vazifalarini bilish va bu chekka hududni imperiyaning qolgan qismi bilan yaqinlashtirish vazifalari turardi”[7].

A.V.Samsonov Rossiya imperiyasi uchun chekka hudud hisoblangan Turkiston o'lkasini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan og'ir sharoit davrida boshqardi. U o'lkada hokimyatga kelgan dastlabki davrda Rossiya imperatori Nikolay II tomonidan Turkistonga taftish o'tkazish maqsadida kelgan imperiya senat a'zosi graf K.K.Palen boshchiligidagi senatorlik tekshiruvi (1909-yilda) hali yakunlanmagan edi. Ushbu tekshiruv xulosasiga ko'ra, Turkiston general-

gubernatori P.I.Mishenkoning lavozimidan ozod etilishiga olib kelgan. A.V.Samsonov esa senatorlik tekshiruvi unga yordam berishini to'g'ri tushungan.

A.V.Samsonovning ma'muriy faoliyati o'lkada jadal sanoat qurilishi davriga to'g'ri keldi va u bu yo'nalishda Rossiya imperiyasi hukumati manfaatlari borasida bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Xusasan, Turkiston-Sibir temir yo'li qurilishi masalasi bilan uzoq shug'ullandi, 1912-yilda bu ishni amalga oshirishga ruxsat oldi [1. – B.200].

Tashqi siyosatda esa, Buyuk Britaniya bilan o'zaro kelishuvlar Markaziy Osiyo hududlari Rossiya imperiyasi foydasiga hal bo'lgach, Turkiston general-gubernatori A.V.Samsonov O'rta Osiyo xonliklar ichki ishlariga ham faol aralashish siyosatini yurita boshladi. XX asrning boshida Turkiston general-gubernatori bo'lgan A.V.Samsonov Xiva xonligi va Buxoro amirlining ahvolini yaxshilashga, bu davlatlarni Rossiyaga qo'shilish orqali erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Hukumat doiralariga moliyaviy sabablarga ko'ra uzoq vaqt davomida Buxoro amirligi va Xiva xonligining mavqeini o'zgartirish ma'qul kelmagan. A.V.Samsonov Vazirlar Kengashiga “bu xonliklarning normal rivojlanishi” ga qaratilgan bir qator tadbirlar zarurligiga asoslanib, Buxoro amirligi va Xiva xonliklari ustidan Turkiston general-gubernatoriga ko'proq vakolat berishni so'rab, Harbiy vazirga murojaat qiladi [10. – B.141]. Biroq, maxsus yig'ilish a'zolari A.V.Samsonovni qo'llab-quvvatlamaydi, ularning fikricha bu Turkiston o'lkasini imperiyaning qolgan qismlaridan ajralib qolishiga olib kelishi mumkin deb hisoblaydi. Rossiya imperiyasi ichki siyosatning maqsadi esa aynan “chet hududlarni markaziy qismlar bilan birlashtirish” iborat edi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

General-gubernator A.V.Samsonov o'lkani boshqarishda siyosiy faoliyati bilan bir qatorda Turkiston o'lkasi madaniy hayotiga oid bo'lgan bir qancha ishlarni amalga oshiradi. Jumladan, o'lka madaniy hayotining ajralmas qismi bo'lgan ta'lim masalasiga oid bir qator islohotlar qilishga urindi. 1898-yilgi Andijon qo'zg'olonidan so'ng bir qator general-gubernatorlar, jumladan A.V.Samsonov ham o'lkadagi musulmon bo'lgan islom dini vakillariga qarshi qat'iy choralar ko'rish, o'lkada ruslashtirish siyosatini tezlashtirish, ta'lim tizimida muhim o'rin tutadigan madrasa va maktablarda tub islohotlar o'tkazish g'oyalarini ilgari surdi [3. – B.35]. Shuningdek, u o'lkadagi musulmon maktablari ustidan nazorat o'rnatish masalasiga yana qaytib, bu borada maktablar faoliyati alohida imperiya hukumati vakillari tomonidan tayinlagan ta'lim inspektori tomonidan doimiy kuzatib borilgan hamda hisoboti olib turilgan.

A.V.Samsonov yuqoridagi masala yuzasidan Turkiston general-gubernatori P.I.Mishenko (1908-1909) davridagi komissiya ishi natijalarini dalil sifatida

ko'rsatdi, unda yozilishicha: "juda ko'p "mahalliy" maktablarda yoshlar ongini bema'ni diniy sxolastika (yun.scholastikos — maktabga, olinga oid — diniy dunyoqarashni nazariy asoslashga intiluvchi diniy falsafa) bilan oziqlantiradigan halokatli tartib hukm surmoqda, yoshlar dunyo va unda sodir bo'layotgan hodisalar haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lmoqdalar". Bundan kelib chiqib, A.V. Samsonov o'lkadagi tuzem (mahalliy an'anaviy maktablar –K.M.) maktablarini hukumat "o'z qo'l ostiga olish"ni taklif qildi. Uning ta'kidlashicha, to'g'ri rahbarlik qilish, tegishli dastur va o'qituvchilarni tanlash orqali bu maktablar viloyat ma'muriyati qo'lida "haqiqiy ma'rifat o'chog'i"ga aylanishi mumkin [4. – C.15]. Bu siyosati natijasida A.V. Samsonov o'lkaning yosh avlodini Rossiya imperiyasi manfaatlari uchun ximat qiladigan kadrlar qilib yetishtirishni asosiy maqsadi qilib olgan.

1909-yil avgust oyida A.V.Samsonov tomonidan chaqirilgan maxsus yig'ilishda Turkistonda o'quv ishlarini yo'lga qo'yish bilan bog'liq bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Chunonchi, Turkiston o'lkasi viloyatlarida "tuzem" maktablari dasturlarini qayta ishlab chiqish uchun komissiyalar tashkil etish, umumiy rus-tuzem maktablari dasturini aholi talablariga javob beradigan tarzda ishlab chiqish, 1910-yil may oyida o'lkada boshlang'ich ta'lim bilan bog'liq masalalar yuzasidan o'qituvchilar sezini o'tkazish [4. – C.16]. kabilar edi. Ushbu yig'ilishdan hamda unda ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan qabul qilingan qarorlar o'lkada rus-tuzem maktablari ijobiy natijalar bermaganligi tufayli mahalliy aholi orasida obro'sizlanganligi, hattoki bir necha rus-tuzem maktablarida bitiruvchilar bo'lmaganligidan kelib chiqib qabul qilindi.

A.V. Samsonov Turkiston o'lkasida qizlar institutini tashkil etish bo'yicha tashabbusni xam ilgari surdi. Imperator devonxonasi boshqaruvchisi D.P.Golitsin general-gubernator fikrini ma'qullab, mazkur muassasa mahalliy manbalar hisobidan moliyalashtirilishi kerakligini ta'kidlagan.

General-gubernator ma'muriyati mablag' yig'ish maqsadida mazkur tadbir bo'yicha Turkiston shaharlarida muhokama tashkil etdi. Farg'ona viloyati shaharlari moliyalashtirishni rad etdi. Namangan, Andijon, Marg'ilon, Qo'qon Shahar boshqarmalari qizlar instituti ta'minoti uchun mablag' ajratishlarini ma'lum qildilar. To'plangan mablag' hajmi jami talab etilayotgan 1800000 rubl oldida arziyas edi. Shu tariqa A.V.Samsonov loyihasi amalga oshirilmay qoldi [6. – B.134].

Turkiston general-gubernatori A.V.Samsonov o'lkada o'rta ta'lim maktablaridagi pedagogik va o'lkashunoslik masalalari bilan qiziquvchi yosh, taraqqiyparvar o'qituvchilar oqimini Stolipin islohotlari oqimiga moslashtirishga harakat qilgan. 1910-yil dekabr oxiri va 1911-yil yanvar boshlarida Toshkentda o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining birinchi syezdi bo'lib o'tdi. Syezd

ishining asosiy mavzusi Turkiston o'lkasining Rossiya markaziy hududlaridan uzoqligi, tabiat va turmush sharoitining o'ziga xosligi sharoitida o'lka maktablari pedagogik faoliyat yuritish masalasi bo'ldi. Tadbir ishtirokchilari oldida Turkistonni Rossiya mustamlakasi sifatida o'rganish va o'quvchilarga "rus quroli" bilan zabt etilgan mamlakat tariqasida o'rgatish, kelajakda ulardan o'lka tarixi va geografiyasini yaxshi biluvchi bo'lajak mustamlakachilarni tayyorlash vazifasi qo'yildi. Syezdda ko'zlangan asosiy masala, ya'ni, ta'lim jarayonini takomillashtirish, o'quv sharoitlarini yanada yaxshilash kabi fikrlar o'lka rahbariyati tomonidan qo'llab-quvvatlanmagan. Mazkur syezdda mahalliy aholi vakillari ishtirok etmagan [6. – Б.136].

Turkiston oliy ma'muriyatining birinchi shaxsi hisoblangan general-gubernator A.V.Samsonov ta'limning barcha jarayonlariga mustamlaka ruhini singdirishga astoydil harakat qildi. U turli mahalliy xalqlar vakillaridan bo'lgan o'quvchilar orasida birdamlik, hamfikrlilikni vujudga keltirmaslik, har bir mahalliy millat vakillarini alohida-alohida holatda rus millati bilan yaqinlashtirish maqsadida 1911–1912-o'quv yilidan o'lkada yana 3 ta: Verniyda rus-qozoq-qirg'iz, Ashxobodda rus-turkman, Skobelevda rus-o'zbek o'qituvchilar seminariyalarini tashkil etishni loyihalashtirdi [6. – Б.151].

A.V.Samsonovning o'lkada olib borgan ta'lim siyosatidan yangi usuldagi jadid maktablari ham chetdan qolmadi. 1912-yil 25-yanvarda Turkiston general-gubernatorining yangi usul maktablari to'g'risidagi farmoyishi qabul qilindi. Unga ko'ra:

1. Boshlang'ich umumta'lim bilim beradigan yangi usul maktablari Xalq o'quv yurtlari inspeksiyasi ruxsati bilan ochiladi.
2. Yangi usul maktablari o'qituvchilari, ularda ta'lim olayotgan o'quvchilar elatidan tayinlanishini nazorat qilib turish zarur.
3. Maktablarni ochganlarga, Shahar va qishloq jamoalariga bu maktablarda umumdavlat rus tilini o'qitishni joriy qilish tavsiya etilsin.
4. Bunday maktablarni ochishda maktablarni ochgan shaxs, jamoadan maktabda o'quv ishlari olib boriladigan o'quv kursi dasturi bilan birga darsliklar nomini taqdim etishni talab qilish zarur [3. – Б.80].

Ushbu farmoyish qat'iy tartibda amalga oshirildi. Ўлкада jadid maktablarining paydo bo'lishi, musulmon maorif tizimida bunday islohotning o'tkazilishi Rossiya hukumatini tashvishga solib qo'yganligi uchun ushbu farmoyish qat'iy tartibda amalga oshirildi.

A.V.Samsonov Turkiston general-gubernatorligida ta'limni империя манфаати нуқтаи назаридан rivojlantirishning keyingi bosqichini Toshkentda oliy politexnikum ochish deb hisobladi. Maktab islohoti munosabati bilan general-gubernator viloyat hokimligining barcha xodimlarini maxsus kurslardan o'tkazish

uchun Toshkentda tarix, geografiya, musulmon Sharqi huquqiga oid mahalliy tillar kurslarini tashkil etish loyihasini amalga oshirishni o'z zimmasiga oldi. A.V.Samsonov eng jiddiy masalalardan biri mahalliy tarjimonlar kontingentini yaxshilash masalasi deb hisobladi.

A.V.Samsonov o'lkada ta'lim okrugi ishonchli vakili lavozimini tashkil etishni taklif qildi. Shu bilan birga, xalq ta'limi bo'yicha mintaqada umumiy bo'lgan masalalarni ko'proq muvofiqlashtirish manfaatlaridan kelib chiqib, mahalliy o'quv okrugi ishonchli vakilini Turkiston general-gubernatoriga bo'ysundirishni taklif qildi. Natijada Turkiston general-gubernatori bevosita P.A.Stolipina (1906-1911 yillarda Rossiya imperiyasining uchinchi bosh vaziri va ichki ishlar vaziri lavozimlarida faoliyat yuritgan rus davlat arbobi) 1910-yil 15-iyunda xat jo'natdi. Xatda rejalashtirilgan Turkiston o'quv okrugiga ikkita – uchinchi okrug inspektor-orientalist (sharq xalqlari tarixi, adabiyoti va tilini yaxshi biluvchi shaxs, sharqshunos) kiritishni ham so'ragan edi. A.V.Samsonov shtatda bunday bilimli va ma'muriy tajribali sharqshunos amaldor bo'lishi lozim deb hisobladi [12. – C.171].

Turkistondagi musulmon maktablari faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish masalasi P.A.Stolipin hukumati tomonidan keng muhokama qilindi. Jumladan, musulmonlar konfessiyaviy ta'lim muassasalarida diniy fanlarning o'qitilishi musulmonlar uchun hukumat tomonidan tasdiqlangan dastur asosida amalga oshirilishi kerakligi, bu dastur musulmon ruhoniylarining nufuzli vakillari ishtirokida Ichki ishlar vazirligi tomonidan ishlab chiqilishi kerakligi ko'zda tutildi [12. – C.171].

O'lkadagi musulmon aholi yashaydigan hududlarda davlat maktablarining inspektorlari lavozimiga mahalliy tillarni biladigan odamlar tayinlanishi kerak, deb taxmin qilingan edi. Musulmon aholi tomonidan tashkil etilgan ta'lim okruglarini boshqarishda hududiy inspektorlarning maxsus lavozimlari tashkil etilishi, bu lavozimlarni mahalliy shevalardan xabardor, ta'lim turmush tarzining ko'p asrlik urf-odatlar va an'analari bo'yicha bilimga ega bo'lgan shaxslarni egallashi zarur edi. Turkistondagi rus ma'muriyatining ma'rifiy ishlarni tashkil etish jarayonida tutgan o'rni qator cheklovlarga ega edi. Buning sababi shundaki, 1886-yilgi Nizomga ko'ra maorif sohasi Turkiston general-gubernatorligi vakolatidan tashqarida edi (1886-yil Nizomining 8-moddasi) [8]. Lekin o'lka hukumati Turkiston o'lkasi hududida mavjud bo'lgan ta'lim muassasalari faoliyatini nazorat qilishdan manfaatdor bo'lgan. Bu unga mintaqadagi milliy siyosat nuqtai-nazaridan muhim bo'lgan musulmon aholining "ruhiy holati" ustidan nazorat qilish masalalarida keng imkoniyatlar berardi.

Turkiston general-gubernatori A.V.Samsonov imperiyaning o'lkadagi mustamlakachilik boshqaruv tizimini mustahkamlash va rivojlantirish uchun harbiy razvedka ta'limiga katta ahamiyat berdi. Uning davrida Toshkentda Sharq

tillaridagi zobitlar maktabining (1909-1914) tashkil etilishi va keyingi faoliyatidagi katta roli shubhasizdir. Aynan uning qarori bilan maktab o'quv dasturiga qisqacha razvedka kursi kiritilgan bo'lib, bu kurs fors, sart (mahalliy – K.M.), hind, ingliz va musulmon huquqshunosliklarini o'rgatadi. Shu tufayli Toshkent maktabi rus armiyasida ushbu eng muhim kurs o'qitiladigan yagona harbiy-sharqshunoslik ta'lim muassasasiga aylandi [11. – C.354]. Bu esa har qanday rus ma'murlarining o'z manfaatlari uchun o'lkadagi faoliyatini yuritishda yordam berdi.

Shuningdek, ayrim rus adabiyotlarida A.V.Samsonovni o'lkaning madaniy hayotiga befarq bo'lmaganligi, ilmiy izlanishlarga yo'l ochib berganligi ta'kidlansada, bunda Rossiya imperiyasi manfaatlarining ustuvorligi inobatga olinganligini unutmasligimiz kerak.

A.V.Samsonov general-gubernatorligi davrida mashhur arxeolog va sharqshunos olim Jozef-Antuan (Iosif Antonovich) Kastane 1909-yilda Orenburg ilmiy arxiv komissiyasi qaramog'idagi muzeyning saqllovchisi vazifasini bajarishni boshlaydi. 1912-yilda J.A.Kastane sog'lig'ining yomonlashganini sabab qilib, Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari bosh nazoratchisidan uni Toshkent, Samarqand yoki Skobelev (Yangi Marg'ilon)dagi ta'lim muassasalaridan biriga o'tkazishni so'rab ariza beradi. 1912-yil avgust oyida u Turkiston general-gubernatori A.V. Samsonovning farmoyishi bilan Toshkentga xizmatga o'tkaziladi. A.V.Samsonov Turkiston arxeologiya ishqibozlari to'garagining faxriy raisi sifatida mintaqaga arxeolog olimlarni jalb qilishdan manfaatdor edi. Bu manfaatdorlik Rossiya imperiyasi muzeylarini, saroylari va kutubxonalarini to'ldirish hamda boyitishga xizmat qilishidan iborat edi.

Havaskor-arxeolog J.A.Kastanyening kolleksiya to'plashi ham e'tiborni tortadi. M.E.Masson uni shunchaki havaskor emas, balki "O'rta Osiyoning qadimgi obidalarini tarixidan mutlaqo bexabar" deb ta'riflagan. U ko'p yillar o'lka bo'ylab sayohat qilar ekan, muayyan vaqt mobaynida yodgorliklarni muhofaza qilish, muzey va kutubxonalar bilan bog'liq turli xizmatlarda ishlagan, katta miqdordagi arxeologik topilmalarni to'plagan. J.A.Kastanye 1920-yilda sovet ma'murlari tomonidan razvedka ishi olib borishda shubha ostiga olinib, Fransiyaga jo'nab ketgan. U o'zi to'plagan buyumlarning bir qismini Ermitajga, 500 ta buyumni Turkiston muzeyiga topshirgan. Ko'pgina olimlar, shu jumladan, M.E.Masson va G.N.Chabrovning guvohlik berishlaricha, J.A.Kastanye o'z kolleksiyasining eng katta va eng yaxshi qismini Parijga olib ketgan [5. – C.156.].

Aslida esa mustamlaka ma'muriyati o'lkadagi tarixiy obidalarining qarovsiz qolib vayron bo'lishiga ataylab yo'l qo'yidilar. Samarqandda Rossiya imperiyasi hukmronlik tizimi o'rnatilgandan so'ng Afrosiyob yodgotligiga nisbatan olib borilgan shafqatsizlarcha qing'irliklarni tarix unutgan emas. Turkiston general-gubernatori A.V.Samsonov esa Samarqandda bo'lganida jahonga mashhur

obidalarining vayron bo'layotgani sababli ularni tiklash zarurligi haqida gap ketganda obidalarni to'pga tutish afzalroq degan. Podsho generallari jahon ommasi fikridan cho'chibgina bunday rejani amalga oshirmadilar [9. – Б.318].

Umuman olganda, Turkiston general-gubernatorlari, viloyat gubernatorlari o'lka moddiy, madaniy boyliklarini talash, ular bilan Rossiya imperiyasi muzeylari, kutubxonalarini to'ldirishda jonbozlik ko'rsatdilar. Turkiston o'lkasida arxeologik, etnografik ekspeditsiyalar tashkil etishdan maqsad hududning boy tarixini o'rganish emas, balki imperiya manfaatlarini inobatga olish, Ermitaj, Fanlar akademiyasining Osiyo muzeyi va boshqa ilmiy markazlariga xilma-xil madaniyat, san'at asarlarini, tarixiy yodgorliklarni doimiy ravishda yig'ib, to'plab, jo'natib turishdan iborat edi.

Turkiston shahridagi Ahmad Yassaviy masjidida saqlanayotgan ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan san'at asarlari hamda Amir Temur tomonidan sovg'a qilingan shamdonlar taqdiri ham Turkiston general-gubernatori A.V.Samsonov nomi bilan bog'liq. Rossiya imperiyasi hukumati shamdonlarni tadqiq qilish uchun ularni birin-ketin Arxeologiya hay'atiga topshirishni, shamdonlarni jo'natish bilan bog'liq xarajatlarni Imperator arxeologiya hay'ati tomonidan qoplanishini Turkiston general-gubernatoriga ma'lum qiladi.

Turkiston general-gubernatori A.V.Samsonov Markazning topshirig'ini bajarishni 1912-yil 27-aprelda Sirdaryo viloyati harbiy gubernatoriga buyuradi. Bu paytda Sirdaro viloyati gubernatori M.Y.Romanov edi. U A.V.Samsonovga yozgan javob xatida uning topshirig'i bajarilgani va Chimkent uyezdining Turkiston uchastka pristavi Ahmad Yassaviy masjididagi shamdonni Peterburgga, Arxeologiya hay'atiga jo'natganligini xabar qiladi [2. – Б.390].

Shunday qilib, arxeologiya hay'ati tomonidan shamdonlarning olinishi Turkiston general-gubernatori A.V.Samsonov yordami bilan amalga oshirildi. Ammo shamdonlardan oxirgisi boshqalaridan ajralib turadigan, nisbatan katta bo'lmagan shamdon Peterburgga yuborilmadi va ushbu shamdonning topilgan yoki topilmaganligi to'g'risida ma'lumot yo'q. Ushbu voqeadan shu narsa ayon bo'ladiki, Rossiya imperiyasining Turkistondagi amaldorlari shariat qonun qoidalarini mensimadilar, maqbara xo'jalari, shayxlarining fikrlari bilan hisoblashmadilar. Turkiston general-gubernatori Sirdaryo viloyati gubernatori orqali, politsiya yordamida maqbara shayxlaridan shamdonlarni tortib oldi va Peterburgga Arxeologiya hay'atiga yubordi. Turkiston general-gubernatorlari va ularning amaldorlari joylardagi boshqa madaniy yodgorliklarni tortib olishda ham shunga o'xshash usullardan foydalangan [2. – Б.391].

XULOSA

1909-1914-yillarda Turkiston o'lkasini boshqargan Aleksandr Vasilyevich Samsonov general-gubernatorligi davrida o'lkada ta'limning boshlang'ich, o'rta, oliy ta'lim jarayonlarini tartibga solishga, ularni yanada imperiya manfaatlariga yo'naltirishga harakat qilindi. A.V.Samsonov Rossiya imperiyasining o'lkadagi manfaatlaridan kelib chiqib, tarixiy-madaniy obyektlarni o'rganish, mashur arxeologlarni hududga jalb qilish borasida ham bir qator ishlarni amalga oshirdi. XX asr boshlarida Turkiston o'lkasiga tayinlangan general-gubernatorlarning xizmat davomiyligi bir yildan oshmagani holda, A.V.Samsonov murakkab bir vaziyatda 4 yil davomida hududda samarali faoliyat ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдурахимова Н.А, Эргашев Ф.Р.Туркистонда чор мустамлака тизими. – Тошкент.: Академия, 2002.
2. Алимова Д.И. Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. – Тошкент.2001.
3. Алимова Н.И. Чор Россиясининг Туркистонда миллий маданият соҳасида олиб борган сиёсати Тарих фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004.
4. Всеподаннейший доклад Туркестанского генерал-губернатора о положении Туркестанского края в 1909 г.
5. Горшенина С. Странный археолог Кастанье // Звезда востока, 1996, № 3.
6. Қодиров Н.Н. Туркистон ўлкасидаги рус таълим муассасалари тарихи. – Тошкент.: Фан ва технология.2013.
7. Мустафин В. Александр Васильевич Самсонов. Исторический вестник. 1916, № 8.
8. Туркистон ўлкасини бошқариш тўғрисидаги Низом..
<http://www.hrono.ru/dokum/turkestan> 1892.html.
9. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. 1-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000.
10. Ураков Д.Ж. Туркистон генерал-губернаторлигининг кўшни давлатлар билан сиёсий ва иқтисодий алоқалари. – Тошкент.2021.
11. Фетисов В. Устроители Туркестана. Повествования о туркестанских генерал-губернаторах. – Ташкент.: Complex Print.2023.
12. Шушкова М.Э. Организация управления Туркестаном в начале XX века. – М.2015.

Камолова М.Ф.

базовый докторант (PhD)

Национальный университет Узбекистана

kamolova.muxlisa7@mail.ru

**ПОЛИТИКА ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА ТУРКЕСТАНА
А.В.САМСОНОВА В ОТНОШЕНИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО
ПРОЦЕССА И ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНЫХ ОБЪЕКТОВ В КРАЕ (1909-
1914 ГГ.)**

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается политика Александра Васильевича Самсонова, генерал-губернатора Туркестана в 1909-1914 гг., проводимая в области культуры в стране, в том числе установление контроля за мусульманскими школами в отношении образования края, налаживание учебной работы, открытие техникумов, вопрос языка в области народного образования; отношение к историко-культурным объектам в крае, осуществляемое им в отношении мавзолея Ахмеда Яссави нематериальные отношения.

Ключевые слова: высший техникум, мусульманские школы, съезд, попечитель учебного округа, Столыпин, мавзолеев Ахмада Яссави, археологическая комиссия.

Kamolova M.F.

doctoral student (PhD)

National university of Uzbekistan

kamolova.muxlisa7@mail.ru

**THE POLICY OF TURKESTAN GOVERNOR-GENERAL
A.V. SAMSONOV REGARDING THE EDUCATIONAL PROCESS AND
HISTORICAL-CULTURAL OBJECTS IN THE REGION (1909-1914)**

ABSTRACT

This article examines the cultural policy implemented by Alexander Vasilyevich Samsonov, who served as the Governor-General of Turkestan from 1909 to 1914. It focuses on his efforts in the region's educational sphere, including the establishment of control over Muslim schools, the organization of educational activities, the opening of technical schools, and the language issue in public education. The article also addresses historical and cultural matters in the region and his immaterial attitude towards the mausoleum of Ahmad Yasawi.

Key words: high school, Muslim schools, congress, representative of the educational district, Stolypin, the mausoleum of Ahmad Yasawi, the Archaeological Commission.